
DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-06-09-69 **Pages: 684-692**

Oriental Journal of History, Politics and Law

SUPPORT SCIENCE

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl



THE IMPORTANCE OF THE OMBUDSMAN INSTITUTION IN ENSURING PARLIAMENTARY OVERSIGHT AND TRANSPARENCY IN PUBLIC ADMINISTRATION IN NEW UZBEKISTAN

Boburjon Islomov
Master's Student, 2nd Year
Public Administration Law Program
Bukhara Innovation University
E-mail: islomovbobur424@gmail.com
Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ombudsman institution, parliamentary oversight, openness of public administration, transparency, human rights, New Uzbekistan, right of legislative initiative.

Received: 21.09.26
Accepted: 22.09.26
Published: 23.09.26

Abstract: This article analyzes two important functions of the Ombudsman institution within the context of legal reforms being implemented in New Uzbekistan — the exercise of parliamentary oversight and its contribution to ensuring openness and transparency in the activities of public administration bodies. Using the method of analyzing regulatory legal acts and official sources, the study examines the stage-by-stage development of the Ombudsman institution since 1995, as well as the additional powers granted to it by the new 2024 law, including the right of legislative initiative. The results show that the Ombudsman, through reviewing citizens' complaints, conducting investigations, and applying measures of influence, is becoming an independent constitutional-legal institution that exposes and helps eliminate a lack of openness in the activities of state bodies. The author has developed recommendations for further improving the institution's activities.

YANGI O'ZBEKISTONDA OMBUDSMAN INSTITUTINING PARLAMENT NAZORATI VA DAVLAT BOSHQARUVI OCHIQLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Boburjon Islomov
Buxoro innovatsiya universiteti
Davlat boshqaruvi huquqi yo‘nalishi
2-kurs magistranti
Email: islomovbobur424@gmail.com
Buxoro, O‘zbekistoan

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Ombudsman instituti, parlament nazorati, davlat boshqaruvi ochiqligi, shaffoflik, inson huquqlari, Yangi O‘zbekiston, qonun ijodkorligi tashabbusi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar kontekstida Ombudsman institutining ikki muhim funksiyasi — parlament nazoratini amalga oshirish va davlat boshqaruvi organlari faoliyatida ochiqlik hamda shaffoflikni ta’minlashga ko‘maklashish — tahlil qilinadi. Tadqiqotda me’yoriy-huquqiy hujjatlar va rasmiy manbalar tahlili metodidan foydalanilgan holda Ombudsman institutining 1995-yildan buyon bosqichma-bosqich rivojlanish tarixi, 2024-yilgi yangi qonun bilan unga berilgan qo‘shimcha vakolatlar, jumladan qonun ijodkorligi tashabbusi huquqi o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Ombudsman fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish, tekshiruv o‘tkazish va ta’sir choralarini qo‘llash orqali davlat organlari faoliyatidagi yopiqlikni fosh etuvchi hamda buni bartaraf etishga xizmat qiluvchi mustaqil konstitutsiaviy-huquqiy institutga aylanib bormoqda. Muallif institut faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqqan.

ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТА ОМБУДСМАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПАРЛАМЕНТСКОГО КОНТРОЛЯ И ОТКРЫТОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАН

Бобуржон Исломов
Магистрант 2-го курса
Направление «Право государственного управления»
Бухарский инновационный университет
E-mail: islomovbobur424@gmail.com
Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: институт Омбудсмана, парламентский контроль, открытость государственного управления,

Аннотация: В данной статье в контексте правовых реформ, осуществляемых в Новом Узбекистане,

прозрачность, права человека, Новый Узбекистан, право законодательной инициативы.

анализируются две важные функции института Омбудсмана — осуществление парламентского контроля и содействие обеспечению открытости и прозрачности деятельности органов государственного управления. В исследовании с использованием метода анализа нормативно-правовых актов и официальных источников изучена поэтапная история развития института Омбудсмана с 1995 года, а также дополнительные полномочия, предоставленные ему новым законом 2024 года, в том числе право законодательной инициативы. Результаты показывают, что Омбудсман, посредством рассмотрения обращений граждан, проведения проверок и применения мер воздействия, превращается в независимый конституционно-правовой институт, выявляющий и способствующий устранению закрытости в деятельности государственных органов. Автором выработаны рекомендации по дальнейшему совершенствованию деятельности института.

Kirish. Har qanday demokratik davlatda hokimiyatning xalq oldida hisobdorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda davlat boshqaruvining ochiq va shaffof bo‘lishiga erishish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ushbu vazifani amalga oshiruvchi muhim institutlardan biri sifatida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili — Ombudsman instituti shakllantirilgan. Ushbu institut Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi hududida birinchilardan bo‘lib O‘zbekistonda, 1995 yilda tashkil etilgan [1]. 1997 yilning 24 aprelida Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida “Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan bo‘lib, o‘tgan davr mobaynida unga bir necha bor o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan [1].

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar inson qadrini yuksaltirish, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va xalqparvar davlat barpo etishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan [2]. Ana shu islohotlar kontekstida Ombudsman institutining vakolatlari izchil kengaytirilib, uning ikki muhim funksiyasi — parlament nazoratini amalga oshirish va davlat boshqaruvi organlari faoliyatida ochiqlik hamda shaffoflikni ta’minlashga ko‘maklashish — alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — Ombudsman institutining huquqiy asoslari, uning parlament nazoratini amalga oshirishdagi vakolatlari hamda davlat boshqaruvi ochiqligini ta’minlashdagi o‘rnini tahlil qilish va institut faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

1. Ombudsman institutining huquqiy asoslari va rivojlanish bosqichlarini o‘rganish;

2. Ombudsmanning parlament nazoratini amalga oshirishdagi vakolatlarini tahlil qilish;

3. institutning davlat boshqaruvi ochiqligi va shaffofligini ta’minlashdagi rolini aniqlash;

4. mavjud muammolarni aniqlab, institut faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish.

Metodologiya. Tadqiqotda quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

• me’yoriy-huquqiy tahlil metodi — “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi qonunning turli tahrirlari (1997, 2017, 2024-yillar), shuningdek tegishli Prezident farmonlari mazmuni tahlil qilindi;

• tarixiy-qiyosiy metod — institutning 1995 yildan to hozirgi kungacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari, vakolatlarining bosqichma-bosqich kengayib borishi qiyoslandi;

• hujjatlarni kontent-tahlil qilish metodi — Ombudsman.uz rasmiy sayti materiallari, ilmiy elektron kutubxona (CyberLeninka) maqolalari va rasmiy amaliy tavsiyanomalar o‘rganildi;

• sintez va umumlashtirish metodi — yig‘ilgan ma’lumotlar asosida xulosa va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Tadqiqot manba bazasini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, Ombudsman institutining rasmiy internet-resurslari hamda mavzu bo‘yicha chop etilgan ilmiy maqolalar tashkil etadi (to‘liq ro‘yxat maqola oxirida keltirilgan).

Natijalar. 1. Ombudsman institutining huquqiy asoslari va rivojlanish bosqichlari

O‘zbekistonda Ombudsman institutining huquqiy maqomi bir necha bosqichda takomillashtirilgan. Dastlab 1997-yilda qabul qilingan Qonun ombudsmanning vakolatlarini nisbatan cheklangan doirada belgilagan edi [3]. Keyinchalik, xususan 2017-yildagi yangi tahrir orqali Ombudsmanning vazifa va vakolatlari kengaytirilgan [1].

2021-yil 10-sentyabrda qabul qilingan “«O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Ombudsman tomonidan ilg‘or xalqaro tajriba o‘rganilgan holda yangi qonun loyihasi ishlab chiqilib, jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgan [4]. Ushbu loyihada Ombudsmanga qonunchilik tashabbusi huquqini berish, ya’ni uning qonun

takliflarini bevosita Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga kiritish huquqini mustahkamlash asosiy yangiliklardan biri bo‘lgan [4].

Islohotlar mantiqiy davomi sifatida 2024-yil noyabr oyida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi yangi Qonun imzolangan [5]. Ushbu qonun bilan Ombudsmanga qonunchilik tashabbusi huquqi rasman berilgan, shuningdek Ombudsman huzuridagi Qiynoq holatlarini aniqlash va oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlari faoliyatining huquqiy asoslari, mintaqaviy vakillarning doimiy ishlash tartibi va mahkumlarning “Ombudsman qutisi” orqali murojaat qilish mexanizmi mustahkamlangan [5]. Shu tariqa, chorak asrdan ortiq davr mobaynida to‘plangan tajriba asosida Ombudsman instituti zamonaviy huquqiy-tashkiliy negizga ega bo‘lib bormoqda [6].

2. Ombudsmanning parlament nazoratini amalga oshirishdagi vakolatlari

Qonunga muvofiq, Ombudsman — davlat organlari, jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxs hisoblanadi [7]. Bu borada Ombudsman bir qator muhim vakolatlarga ega:

• fuqarolarning, respublika hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning, shuningdek yuridik shaxslarning murojaat va shikoyatlarini ko‘rib chiqish hamda o‘z tashabbusi bilan tekshiruv o‘tkazish huquqi [5];

• huquqbuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan davlat organlari va tashkilotlar rahbarlariga ogohlantirish, taqdimnoma, iltimosnoma va talabnoma kabi ta’sir choralarini kiritish [5];

• tashkilotlar va mansabdor shaxslardan zarur hujjat, material va ma’lumotlarni so‘rab olish, ushlab turilgan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslar bilan uchrashuv va suhbatlar o‘tkazish huquqi [8];

• fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab, davlat bojisiz sudlarga murojaat qilish imkoniyati [8];

• Prezident, Oliy Majlis palatalari va Vazirlar Mahkamasiga inson huquqlari sohasidagi maxsus ma’ruzalarni taqdim etish [4].

Ombudsmanning parlament nazorati boshqa nazorat subyektlari — deputatlar so‘rovlari, parlament tergov komissiyalari va boshqa mexanizmlar bilan uyg‘unlikda amalga oshirilishi uning nazorat samaradorligini oshiradi [7]. Shuningdek, Milliy preventiv mexanizm doirasida faoliyat yurituvchi ekspert guruhi jazoni ijro etish muassasalari, tergov izolyatorlari va boshqa yopiq muassasalarda inson huquqlarining ta’minlanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini o‘rnatishga xizmat qilmoqda [9]. Bundan tashqari, ixtisoslashgan yo‘nalishlar — bolalar,

nogironligi bo‘lgan shaxslar, harbiy xizmatchilar, jinoyatdan jabrlanganlar va soliq to‘lovchilar huquqlari bo‘yicha alohida ombudsmanlar faoliyati orqali nazorat doirasi kengaymoqda [10]. Xususan, “Bolalar ombudsmani to‘g‘risida”gi Qonun bola huquqlari bo‘yicha alohida institutni tashkil etish va uning faoliyatini tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, bu O‘zbekistonning BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishini nazorat qilishning ajralmas qismidir [11].

3. Davlat boshqaruvi ochiqligi va shaffofligini ta’minlashda Ombudsmanning o‘rni

Davlat boshqaruvi ochiqligi — aholining davlat organlari faoliyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, korrupsiyani kamaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishning muhim omili sifatida baholanadi [12]. So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda Prezident qarorlari, “Ochiq ma’lumotlar portali”ning faoliyati, Xalq qabulxonalari tizimi kabi institutsional va huquqiy islohotlar amalga oshirilgan, xalqaro reyting va indikatorlarda ham ijobiy natijalar qayd etilgan [12].

Ombudsman ushbu jarayonda ikki tomonlama rol o‘ynaydi. Birinchidan, u fuqarolarning davlat organlari faoliyati yuzasidan bildirgan murojaatlarini ko‘rib chiqish orqali davlat boshqaruvi amaliyotidagi yopiqlik va nomutanosibliklarni fosh etadi hamda ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar beradi [6]. Ikkinchidan, Ombudsman o‘zining qonun ijodkorligi tashabbusi huquqidan foydalanib, davlat boshqaruvi ochiqligiga oid qonunchilikni takomillashtirishda bevosita ishtirok etadi [4]. “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiqligi to‘g‘risida”gi va “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunlar davlat organlarining jamoatchilik, jumladan ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilishining huquqiy asoslarini belgilagan bo‘lib, bu asoslar Ombudsman faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda amal qiladi [13].

Davlat tashkilotlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo‘lga qo‘yish davlat boshqaruvida samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur huquqiy negiz yaratganligi alohida ta’kidlanadi [14]. Bunda meritokratiya tamoyiliga asoslangan kadrlar siyosati, davlat xaridlarida ochiqlikni ta’minlash va korrupsiyaga oid sud ishlari yuzasidan statistik ma’lumotlarning ochiqligi kabi mexanizmlar joriy etilgan [14], Ombudsman esa ushbu mexanizmlarning amalda ishlashini nazorat qiluvchi mustaqil institut sifatida muhim o‘rin tutadi.

Muhokama. Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, Ombudsman institutining huquqiy maqomi mustahkamlanib borishi bilan uning parlament nazorati va davlat boshqaruvi ochiqligini ta’minlashdagi o‘rni ham sifat jihatidan o‘zgarib bormoqda: agar 1997-yilgi Qonunda institut asosan fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiquvchi organ sifatida talqin etilgan bo‘lsa [3], 2024-yilgi Qonunda unga qonun ijodkorligi tashabbusi huquqining berilishi Ombudsmanni faqat reaktiv

(murojaatga javob beruvchi) emas, balki proaktiv (qonunchilikni takomillashtirishga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi) institutga aylantirmoqda [4; 5]. Bu, o‘z navbatida, davlat boshqaruvi ochiqligiga oid me’yoriy bazaning Ombudsman ishtirokida yanada takomillashishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, tahlil bir qator muammoli jihatlarni ham ochib berdi. Xususan, quyidagilar Ombudsman institutining samaradorligini yanada oshirish uchun hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar sifatida belgilandi:

1. murojaatlarning maxfiyligini ta’minlash va bu sohadagi mas’ul xodimlarning bilim hamda ko‘nikmalarini oshirish [6];

2. fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish [6];

3. Ombudsman faoliyatida ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini izchil kuchaytirish, bu esa o‘z navbatida fuqarolarning Ombudsmanga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi [6];

4. mintaqaviy vakillik tizimi va monitoring tashriflari amaliyotini yanada takomillashtirish [5].

Ushbu natijalar boshqa tadqiqotchilarning davlat boshqaruvi ochiqligi bo‘yicha xulosalari bilan ham uyg‘unlashadi: xususan, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflik samarali jamoatchilik nazoratining zarur huquqiy sharti ekanligi ta’kidlanadi [14], Ombudsman esa aynan shunday nazoratni institutsional jihatdan ta’minlovchi vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ichki ishlar organlari misolida o‘tkazilgan tadqiqotlar ham jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslarini mustahkamlash umumiy tendensiya ekanligini tasdiqlaydi [13], bu esa Ombudsman institutining faoliyati alohida holda emas, balki davlat boshqaruvi ochiqligini ta’minlashning kengroq tizimi doirasida ko‘rib chiqilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar natijasida Ombudsman instituti nafaqat inson huquqlarini himoya qiluvchi, balki davlat organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini ta’minlovchi va davlat boshqaruvining ochiqligiga ko‘maklashuvchi muhim konstitutsiaviy-huquqiy mexanizmga aylanib bormoqda. 1995-yildan buyon bosqichma-bosqich takomillashib kelayotgan ushbu institutning vakolatlari — xususan, qonun ijodkorligi tashabbusi huquqi, tekshiruv o‘tkazish va ta’sir choralarini qo‘llash imkoniyatlari — uni fuqarolar va davlat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi bo‘g‘inga aylantirmoqda. Shu bilan birga, institut faoliyatini yanada rivojlantirish, uning mustaqilligi va moddiy-texnik ta’minotini kuchaytirish, shuningdek jamoatchilik bilan hamkorlikni chuqurlashtirish borasidagi ishlarni davom ettirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ombudsman [Elektron resurs] // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) rasmiy sayti. — URL: https://ombudsman.uz/oz/managements/ombudsman (murojaat sanasi: 13.09.2026).

2. Yangi O‘zbekiston sharoitida inson huquqlarini himoya qilishning asosiy omillari [Elektron resurs] // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) rasmiy sayti. — URL: https://ombudsman.uz/oz/docs/yangi-ozbekiston-sharoitida-inson-huquqlarini-himoya-qilishning-asosiy-omillari (murojaat sanasi: 13.09.2026).

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (Ombudsmanning) 2024-yildagi faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzasi haqida: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 18-martdagi SQ–100–V-son qarori [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-7481256 (murojaat sanasi: 13.09.2026).

4. Ombudsmanga qonunchilik tashabbusi huquqini berish bo‘yicha qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi [Elektron resurs] // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) rasmiy sayti. — 2021. — 17 dek. — URL: https://ombudsman.uz/oz/news/2021/12/17/ombudsmanga-qonunchilik-tashabbusi-berilishi-boyicha-qonun-loyihasi-jamoatchilik-muhokamasiga-qoyildi (murojaat sanasi: 13.09.2026).

5. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida»gi Qonun imzolandi [Elektron resurs] // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) rasmiy sayti. — 2024. — 15 noyab. — URL: https://ombudsman.uz/oz/news/2024/11/15/ozbekiston-respublikasi-oliy-majlisining-inson-huquqlari-boyicha-vakili-ombudsman-togrisidagi-qonun-imzolandi (murojaat sanasi: 13.09.2026).

6. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi davlat siyosati Ombudsman faoliyatida [Elektron resurs] // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) rasmiy sayti. — URL: https://ombudsman.uz/oz/docs/inson-huquqlari-va-erkinliklarini-himoya-qilishdagi-davlat-siyosati-ombudsman-faoliyatida (murojaat sanasi: 13.09.2026).

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi O‘RQ–1002-son Qonuni, 35-modda — «Ombudsmanning parlament nazoratining boshqa subyektlari bilan

hamkorligi» [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — 18.11.2024. — № 03/24/1002/0936. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-7223219 (murojaat sanasi: 13.09.2026).

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) [Elektron resurs] // Vikipediya: ochiq ensiklopediya. — URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Oliy_Majlisining_Inson_huquqlari_bo%E2%80%98yicha_vakili_(ombudsman) (murojaat sanasi: 13.09.2026).

9. Inson huquqlari: milliy preventiv mexanizm doirasidagi monitoring faoliyatiga oid materiallar [Elektron resurs] // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) rasmiy sayti. — URL: https://ombudsman.uz/oz/tag/humanrights (murojaat sanasi: 13.09.2026).

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-fevraldagi O‘RQ–917-son Qonuni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-6823379 (murojaat sanasi: 13.09.2026).

11. O‘zbekiston Respublikasining «Bolalar ombudsmani to‘g‘risida»gi qonunini qabul qilish zarurligi to‘g‘risida [Elektron resurs] // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) rasmiy sayti. — URL: https://ombudsman.uz/oz/docs/ozbekiston-respublikasining-bolalar-ombudsmani-togrisidagi-qonunini-qabul-qilish-zarurligi-togrisida (murojaat sanasi: 13.09.2026).

12. O‘zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari ochiqligi [Elektron resurs] // CyberLeninka: ilmiy elektron kutubxona. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-davlat-hokimiyati-va-boshqaruv-organlari-ochiqligi (murojaat sanasi: 13.09.2026).

13. Ichki ishlar organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash: xorij tajribasi [Elektron resurs] // CyberLeninka: ilmiy elektron kutubxona. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ichki-ishlar-organlari-faoliyatida-ochiqlik-va-shaffoflikni-ta-minlash-xorij-tajribasi (murojaat sanasi: 13.09.2026).

14. Davlat tashkiloti faoliyati ochiqligi va shaffofligining huquqiy asoslari [Elektron resurs] // O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi rasmiy sayti. — 2025. — 25 mart. — URL: https://minjusttraining.uz/news/davlat-tashkiloti-faoliyati-ochiqligi-va-shaffofligining-huquqiy-asoslari (murojaat sanasi: 13.09.2026).